



O‘ZBEKISTON RESPUBLI KASI
KAMBAG’ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
QASHQADARYO VILOYATI KAMBAG’ALLIKNI QISQARTIRISH
VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI

Миришкор тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Китоб тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Шахрисабз шаҳар Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Шахрисабз тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

J.X.MUSTAFAKULOVA

N.N.Sunnatov

Dexqonobod tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka
ko'maklashish bo'limi

Кўкдала тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Нишон тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Ғуздор тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Косон Тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Қарши тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими



Қарши шаҳар Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

B.B.BERDIYEV

Яккабоғ тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Қамаши тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Чироқчи тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

Касби тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

S.N.NORQULOV

SH.D.DAVLATOVA

Муборак тумани Камбағалликни қисқартириш ва бандликка
қўмаклашиш бўлими

M.R.AMIROV

8-band ..Белгиланган муддатларда ижроси таъминлансин

Muddat: 23 Fevral 2024

№01/07-277

21 Fevral 2024

R.A.G'AFUROV

Bosh boshqarma boshlig'i





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2024-yil “21” fevral

26-son

Toshkent shahri

Qo‘shma qaror ijrosini
ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 12-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida budjet tizimi budjetlarining mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini o‘rnatish to‘g‘risida”gi Qo‘shma qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 12-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida budjet tizimi budjetlarining mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini o‘rnatish to‘g‘risida”gi Qo‘shma qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. **Vazir o‘rinbosari** (R. Turdiboyeva) **Moliya-iqtisod boshqarmasi** (B. Pardayev), **Ichki audit boshqarmasi** (F. Azizov), **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi** (D. Xasanov), **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi** (B. Xasanov), **Investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish, davlat xaridlari va DXShni rivojlantirish bo‘limi**, **Moliyaviy hisobot bo‘limi** (J. Tashmatov):

budjet tizimi budjetlari mablag‘larining maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazoratni olib borish bo‘yicha tashkil qilingan respublika, hududiy, tuman (shahar) Ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtirib borsin;

bir oy muddatda vazirlik tizimida budget va budgetdan tashqari mablag'larni maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan masofaviy tarzda monitoring va nazoratni olib borish bo'yicha **"Situatsion markaz"**ni to'liq ish yuritishini tashkil etsin.

Bunda,

a) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida budget va budgetdan tashqari mablag'larni maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan masofaviy tarzda monitoring va nazoratni olib borish bo'yicha **"Situatsion markaz"**ni tashkil etish bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi *ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

b) **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi** (B. Xasanov), **Moddiy-texnik ta'minlash bo'limi** (S. Abduqaxxorov) **"Situatsion markaz"** tashkil etish uchun xona, kompyuter va mebel jihozlar bilan ta'minlasin;

c) mavjud axborot tizimlari, jumladan, "abkm.mehnat.uz", "online-mahalla.uz", "my.mehnat.uz", "labormigration.uz", "xarid.uzex.uz", "xt-xarid.uz", "Shaffof qurilish", "UzASBO", "DMBAT", "registr.stat.uz" va boshqa axborot tizimlari hamda Hisob palatasining elektron ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda "Situatsion markaz" faoliyatini yo'lga qo'ysin.

3. Moliya-iqtisod boshqarmasi (B. Pardayev), **Ichki audit boshqarmasi** (F. Azizov), **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi** (B. Xasanov), **Investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish, davlat xaridlari va DXShni rivojlantirish bo'limi**, **Moliyaviy hisobot bo'limi** (J. Tashmatov) **"Situatsion markaz"** faoliyati yo'lga qo'yilishi munosabati bilan quyidagi ishlarni amalga oshirsin:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda vazirlikda quyidagi yo'nalishlarda budget qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e'tibor qaratish;

vazirlik tizimidagi hamda tasarrufidagi tashkilotlarda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi;

vazirlikning tasdiqlangan dasturiga asosan amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini o'tkazish;

budget tizimi budgetlaridan to'lanayotgan subsidiyalarning manzilliligini va samaradorligini baholash;

vazirlik huzuridagi barcha jamg'armalardan to'lanayotgan xarajatlarni maqsadlilikini va manzilliligini o'rganish;

davlat xaridlari bo'yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish;

davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini o'rganish;

budjet jarayonining barcha bosqichlarida xarajatlarning maqsadli va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish.

4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (N. Kadirov) **Moliya-iqtisod boshqarmasi** (B. Pardayev), **Ichki audit boshqarmasi** (F. Azizov), **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi** (D. Xasanov), **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi** (B. Xasanov), **Investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish, davlat xaridlari va DXShni rivojlantirish bo'limi**, **Moliyaviy hisobot bo'limi** (J. Tashmatov) hududiy Ishchi guruhlariga vazirlikdan mas'ul etib biriktirish uchun xodimlar ro'yxatini shakllantirsin.

5. Moliya-iqtisod boshqarmasi (B. Pardayev), **Moliyaviy hisobot bo'limi** (J. Tashmatov):

yil davomida vazirlik tizimidagi va tasarrufidagi muassasalarda vakant lavozimlar hisobiga shakllangan bo'sh pul mablag'larini moliya organlarida alohida g'azna hisobraqamiga talab bo'lgunga qadar jamlanishi hisobotini yuritib, respublika Ishchi guruhiga oylik ma'lumotlar taqdim etib borsin;

aloqida xarajat moddalarida jamlangan bo'sh pul mablag'larini boshqa zaruriy tadbirlarni moliyalashtirish uchun qayta yo'naltirishga taqsimlanishi hisobotini yuritib, respublika Ishchi guruhiga oylik ma'lumotlar taqdim etib borsin.

6. Ichki audit boshqarmasi (F. Azizov):

“Situatsion markaz” faoliyati yo'lga qo'yilishi munosabati bilan vazirlikning xarajatlari va nazorati ostidagi tashkilotlari bo'yicha masofaviy audit tizimini yo'lga qo'ysin;

vazirlikning rivojlantirish dasturlari samaradorligini, sifatli va haqqoniy baholab borsin;

barcha o'tkazilgan nazorat tadbiri natijalarining o'z vaqtida “Davlat auditi” dasturiga to'liq kiritilishini ta'minlasin;

hududiy, tuman (shahar)lar Ishchi guruhlariga ma'lumotlarini umumlashtirib, vazirlik rahbariyatiga taqdim etib borsin.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D. Xasanov), **Investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish, davlat xaridlari va DXShni rivojlantirish bo'limi:**

xaridlar jarayonini muntazam o'rganib borsin;

kontragentlarni o'rganish hamda affillangan shaxslar aniqlash va manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olish ishlarini tashkil etsin;

xaridlar jarayonida narx marketingi o'tkazilganligi va ularning haqqoniyligi, bozor narxlariga mosligi ustidan monitoring o'tkazib borsin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmalari boshliqlari:

Qo‘shma qarorga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shahar) hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari rahbarlik qiluvchi hududiy va tuman (shahar)lar darajasida viloyat va tuman (shahar) xokimlarining tegishli farmoyishlariga asosan ishchi guruhlar tuzilishi inobatga olinsin;

hududiy va tuman (shahar)lar darajasidagi Ishchi guruhlarda vazirlik tizimiga qo‘yilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida sifatli va samarali bajarish maqsadida vazifalarni, ularning muddatlarini va mas‘ul xodimlarni belgilagan holda viloyat bosh boshqarma va tuman (shahar) bo‘limlarining ichki buyruqlari ishlab chiqilsin;

ushbu topshiriqlarni o‘z vaqtida sifatli va samarali bajarish yuzasidan viloyat va tuman (shahar) rahbarlari shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo‘yilsin;

xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali amaldagi me‘yorlar va asoslantiruvchi hujjatlarga asosan to‘g‘ri tuzilishini o‘rganish, samarasiz va ortiqcha xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan kichik ish ishchi guruhlar tuzilsin;

hududiy, tuman (shahar)lar Ishchi guruhlariga yuklatilgan topshiriqlarning ijrosi bo‘yicha axborotlarni har hafta juma kuni Ishchi guruhiga taqdim etib borsin.

9. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o‘rinbosari R. Turdiboevaga yuklatilsin.

Vazir



B. Musaev

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirining
2024- yil “21 ” fevral 26- son buyrug‘iga
____-ilova

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida budget va budgetdan
tashqari mablag‘larni maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan masofaviy tarzda
monitoring va nazoratni olib borish yuzasidan “Situatsion markaz”ni tashkil
etish bo‘yicha Ishchi guruhi tarkibi**

T/r	Ishchi guruh a‘zosi F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Turdiboyeva Ra’no Eshovna	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri o‘rinbosari, <i>Ishchi guruh raisi</i>
2.	Lavozimi bo‘yicha	Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i, <i>Ishchi guruh raisi o‘rinbosari</i>
3.	Azizov Fayzullo Abdullayevich	Ichki audit boshqarmasi boshlig‘i, <i>Ishchi guruh a‘zosi</i>
4.	Tashmatov Jasur Abdivoxobovich	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi boshlig‘i, <i>Ishchi guruh a‘zosi</i>
5.	Xasanov Dilshod Erkin o‘g‘li	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i, <i>Ishchi guruh a‘zosi</i>
6.	Xasanov Bobir Abidjanovich	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi boshlig‘i, <i>Ishchi guruh a‘zosi</i>
7.	Abduqaxxorov Sardorbek Qobuljon o‘g‘li	Moddiy-texnik ta‘minlash bo‘limi boshlig‘i – ishlar boshqaruvchisi, <i>Ishchi guruh a‘zosi</i>
8.	Tajiboyev Sardor Xabibullaevich	“Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi” MCHJ direktori, <i>Ishchi guruh a‘zosi</i>

21 fevral 2024 yil.

26-son